



Azamatov Shohrubbek Sherzod o'g'li

Qarshi Davlat Universiteti Sport fakulteti 1-bosqich talabasi Murojaat uchun Tel: 97 466 55 05

Annotatsiya: Iqlim o'zgarishi hozirgi kunda insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Havo haroratining o'sishi, suv manbalarining kamayishi, ekotizmlarning buzilishi va boshqa tabiiy o'zgarishlar butun dunyo miqyosida yashash sharoitlarini o'zgartirmoqda. Iqlim o'zgarishining oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, shuningdek, tabiiy ekotizmlarni asrash masalalari bu jarayonda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, moslashish va tabiiy ekotizmlarni asrashning ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlari: Iqlim o'zgarishi, ekotizimlar, Biodiversitetni saqlash, iqlim o'zgarishiga moslashish, yashil energiya, is gazi, issiqxona samarasi, biotsenoz.

Abstract: Climate change is one of the most pressing problems facing humanity today. Rising temperatures, shrinking water resources, ecosystem degradation, and other natural changes are changing living conditions around the world. Adaptation to and mitigation of climate change impacts, as well as conservation of natural ecosystems, are of great importance in this process. In this article, we will discuss the importance of climate change mitigation, adaptation, and conservation of natural ecosystems.

Keywords: Climate change, ecosystems, Biodiversity conservation, climate change adaptation, green energy, greenhouse gas, greenhouse effect, biocenosis.

Абстрактный: Изменение климата — одна из самых острых проблем, стоящих перед человечеством сегодня. Повышение температуры, сокращение водных ресурсов, деградация экосистем и другие природные изменения меняют условия жизни во всем мире. Адаптация к последствиям изменения климата и смягчение их воздействия, а также сохранение природных экосистем имеют огромное значение в этом процессе. В этой статье мы обсудим важность смягчения последствий изменения климата, адаптации и сохранения природных экосистем.

Ключевые слова: изменение климата, экосистемы, сохранение биоразнообразия, адаптация к изменению климата, зеленая энергия, парниковый газ, парниковый эффект, биоценоз.

KIRISH

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy global muammolardan biri bo'lib, u ekotizimlar muvozanatini buzmoqda. Ushbu jarayon tabiiy ofatlar, sog'liqni saqlash tizimiga yuklamalar va iqtisodiy barqarorlikka tahdid solib, kelajak avlodlar hayot tarzini tubdan o'zgartirmoqda. Maqolada global isishning sabablari, oqibatlari va insoniyat kelajagiga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda iqlim o'zgarishi shunchaki ekologik mavzu emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining barqarorligiga tahdid soluvchi global xavfga aylandi. XX asrning

ikkinchi yarmidan boshlab kuzatilayotgan global isish jarayonlari, atmosfera tarkibidagi o'zgarishlar va texnogen omillar tabiatdagi nozik muvozanatni izdan chiqardi. Ushbu jarayon nafaqat qishloq xo'jaligi, suv resurslari va iqtisodiyotga, balki aholi salomatligi va kundalik hayotimizning har bir jabhasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim inqirozi oqibatlari — suv toshqinlari, qurg'oqchilik va ekstremal ob-havo hodisalari — ertangi kunimiz uchun qanday xatarlarni yashirmoqda?

Asosiy qism

Iqlim o'zgarishining oqibatlari. Iqlim o'zgarishi natijasida yer yuzida yuz berayotgan o'zgarishlar o'ta keng miqyosda ko'rinmoqda. O'zgargan havo harorati, qurg'oqchilik, suvsizlik, dengiz sathining ko'tarilishi, meteorologik hodisalarning kuchayishi. Masalan, bo'ronlar, yong'inlar, toshqinlar kabi omillar ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiiy ekotizmlar - o'simliklar va hayvonlar jamoasi, ularning yashash muhitlari va o'zaro aloqalari - iqlim o'zgarishi natijasida juda ko'p zarar ko'rmoqda. Bu ekosistemalarning barqarorligini ta'minlashga putur yetkazmoqda va ularning inson hayoti uchun taqdim etgan tabiiy resurslari, masalan, toza havoni, suvni, oziq ovqatni kamaytiradi. Iqlim o'zgarishiga moslashish: Iqlim o'zgarishiga moslashish, ya'ni iqlim o'zgarishiga nisbatan insonlar va tabiatning tayyorlik darajasini oshirish, jamiyatlar va ekotizmlarning yangi sharoitlarga moslashuvchanligini ta'minlashni anglatadi.

Bunga bir qancha strategiyalarni kiritish mumkin: - Qishloq xo'jaligi va suv boshqaruvi: Suv resurslaridan samarali foydalanish, qurg'oqchilikka chidamli ekinlarni yetishtirish, suvni tejash va sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish. Shahar infratuzilmasini qayta qurish. Shahar iqlim o'zgarishiga mos ravishda qurilish lozim. Bunga yuqori issiqlikni kamaytirish, toshqinlarni oldini olish va energiya samaradorligini oshirish kiradi. Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'siridan, xususan, kasalliklar va infeksiyalardan himoya qilish uchun sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash. Iqlim o'zgarishini yumshatish, ya'ni uning salbiy ta'sirlarini kamaytirishga qaratilgan harakatlar bir qator chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Neft va gazdan foydalanishni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiya kiritish. Uglerod chiqindilarini kamaytirish. Korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarida uglerod izlarini qisqartirish va ekalogik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etish.

O'rmonlarni himoya qilish va ko'paytirish. O'rmonlar global iqlimni tartibga solishda muhim ro'l o'ynaydi. Daraxtlarni kesishni oldini olish va yangi daraxtlarni ekish kabi chora tadbirlar iqlim o'zgarishiga qarshi samarali kurashishda yordam beradi. Global iqlim o'zgarishlari ko'p sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Ulardan biri issiqlik gazlarining ko'payishi hisoblanadi. Karbon dioksid (CO₂), metan (CH₄), nitroz oksid (N₂O) kabi gazlar Yer atmosferasida issiqlik tuzilishini o'zgartiradi. Ushbu gazlarning ko'payishi sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va o'rmonlarni kesish kabi insoniyat faoliyatlari tufayli yuzaga keladi. Issiqlik gazlarining atmosferaga chiqarilishi Yer sathining o'rtacha haroratini orttiradi va bu global iqlim o'zgarishlariga olib keladi. Ozon qatlamining yo'qolishi ham global iqlim o'zgarishiga katta ta'sir qiladi. Ozon qatlamining asosiy vazifasi ultrabinafsha nurlarni ushlab, Yer yuzasini himoya qilishdir. Ammo CFK gazlari tufayli ozon qatlamining yo'qolishi global iqlim o'zgarishiga olib keladi. Yer sathining

o'zgarishi ham juda muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi, sanoat qurilishi va yo'llar qurilishi kabi faoliyatlar Yer sathining tuzilishini o'zgartiradi va bu issiqlik ushlab qobiliyatini kamaytiradi.

Xulosa

Maqolamning xulosa qismi shundan iboratki: Iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish jarayonlari, shuningdek, tabiiy ekotizmlarni asrash insoniyatning kelajagi uchun juda muhimdir. Bularning barchasi birgalikda iqlim o'zgarishining ta'sirini kamaytirish, resurslarni tejash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ekotizmlarning himoya qilish va ularga zarar yetkazmaslik, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni rivojlantirishimiz kerak. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari tobora kuchayib bormoqda, lekin bu masalaga qarshi kurashishda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Yumshatish va moslashish strategiyalarini iqlim o'zgarishining ta'sirini kamaytirish va tabiiy ekotizmlarni asrashda muhim ro'l o'ynaydi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, barchamiz uchun barqaror kelajakni ta'minlashga yordam beradi. Tabiiy resurslar va ekotizmlarni himoyasi orqali biz kelajak avlodlar uchun sog'lom va havfsiz hududni yaratishimiz mumkin. Iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish strategiyalari bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Barqaror qishloq xo'jaligi, qayta tiklanuvchi energiyalar, suv resurslarini boshqarish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, innovatsion texnologiyalar va ta'lim orqali biz atrof-muhitni himoya qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishamiz. Xalqaro hamkorlik esa global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Har birimiz bu jarayonda faol ishtirok etishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MASALALARI Sabirova Z.A. Qoraqalpoq Davlat Universiteti, O'zbekiston.

2. GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARI VA ILM-FANNING ROLI Djumaboyeva Nodira Yuldashevna Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida Assistant o'qituvchi.

3. IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY EKOTIZMLARNI ASRASH. Turg'unboyeva M. U. Sarikulov M. O. Andijon davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi, Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

4. Iqlim o'zgarishi va uning insoniyat hayotiga ta'siri Arofatxon Hamidova Farg'ona davlat texnika universiteti.